TILSHUNOSLIK

UDK: 811.111.8 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a98**

INGLIZ TILIDA MODAL SO‘ZLAR MUQOBILLARI HAQIDA UMUMIY QARASHLAR

GENERAL CONSIDERATIONS ON ALTERNATIVES OF MODAL WORDS IN ENGLISH

ОБЩИЕ СООБРАЖЕНИЯ ОБ АЛЬТЕРНАТИВАХ МОДАЛЬНЫХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Sirojidinova Dilraboxon Baxtiyor qizi[1]

[1]**Sirojidinova Dilraboxon Baxtiyor qizi** – Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali, Xorijiy tillar kafedrasi assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz tilida modal so‘zlarning qo‘llanilishi masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, asosan, modal so‘zlarni ifodalovchi vositalarning vazifalarini bajara olish imkoniyatiga ega bo‘lgan so‘zlarni qamrab olgan. Shuningdek, modal so‘zlar muqobillarining gapda qo‘llanilish qoidalari berilgan bo‘lib, misollar bilan asoslab berilgan. Modal so‘zlarning muqobillari, ya’ni “semi-modals” tilshunoslikda hozirgacha muammoli mavzu sifatida o‘rganilmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi ingliz tilidagi modal so‘zlarning muqobillarini o‘zbek tilidagi tarjimalari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni ko‘rib chiqish va ularga yechimlar taklif qilishdir. Izlanishlar davomida tur xildagi ta’limga yo‘naltirilgan usullardan foydalanildi. Bulardan eng samaralisi bu didaktik uslub ekanligi, chunki bu uslubning asosiy maqsadi har bir ishtirokchi va umuman jamoa asosiy muammoni hal qilish orqali birlashib, o‘z xatti-harakatlarini g‘alaba qozonish uchun yo‘naltiradigan jamoaviy, yo‘naltirilganligi bilan mazkur grammatik mavzuni o‘qitishda samarali ekanligi kuzatildi. Izlanishlar davomida modal so‘zlarni o‘qitish davomida ularning muqobillarini birgalikda misollar asosida, hayotiy vaziyatlardan kelib chiqib tushuntirish xorijiy tilni o‘rgatuvchi va o‘rganuvchilar uchun eng qulay hisoblanishi isbotini topdi. Maqolaning yakunida “semi-modals” xuddi modallardek gaplarni to‘liq holatda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatni ifodalash uchun muammolarsiz qo‘llanilishi mumkinligi xulosa qilindi.

Abstract

This article is related to the use of modal words in English, and mainly covers words that have the ability to perform the functions of means of expressing modal words. Also, the rules for the use of alternatives of modal words in sentences are given and justified with examples. one is to study the problems related to the translations of the alternatives of English modal words in Uzbek. During the research, various educational methods were used. The most effective of them is the didactic method, which the main purpose of the game is a collective, focused learning activity, when each participant and the team as a whole unite by solving the main problem and direct their behavior to win. Also, the goal is to form and develop unique skills for acting in clearly defined situations. The research proved that during the teaching of modal words, to explain their alternatives based on examples, based on life situations, foreign language teachers and learners was the most convenient. The article has concluded that we can use the phrase “semi-modals” as well as modals in the complete state to express the relationship between the speaker and the listener.

Аннотация

Данная статья связана с употреблением модальных слов в английском языке и в основном охватывает слова, обладающие способностью выполнять функции средств выражения модальных слов. Также приводятся и обосновываются на примерах правила употребления заместителей модальных слов в предложениях. Одна из них заключается в изучении проблем, связанных с переводами замен английских модальных слов на узбекский язык. В ходе исследования использовались различные образовательные методы. Наиболее эффективным из них является дидактический метод, основной целью которого является коллективная целенаправленная учебная деятельность, когда каждый участник и команда в целом объединяются решением основной задачи и направляют свое поведение на победу. Также целью является формирование и развитие уникальных навыков действия в четко определенных ситуациях. В ходе исследования, при обучении модальным словам объяснять их альтернативы на примерах, исходя из жизненных ситуаций, преподаватели иностранного языка и обучающиеся проявили себя как самый удобный для Если сделать вывод на основании написания статьи, то мы можем использовать словосочетание «сами-модальные», а также модальные в законченном состоянии для выражения отношений между говорящим и слушающим без каких-либо проблем.

Kalit so‘zlar: *modallar, modallik muqobillari, ehtimollik, zaruriyat, qobiliyat, zamonlar, didaktik uslub, o‘quv faoliyati, zamonaviy ta’lim.*

Key words: *modals, alternatives of modality, possibility, necessity, ability, tenses, didactic style, educational activity, modern education.*

Ключевые слова: *модальные формы, варианты модальности, возможность, необходимость, умение, времена, дидактический стиль, учебная деятельность, современное образование.*

TILSHUNOSLIK

KIRISH

Tilshunoslik juda keng ko‘lamdagi yo‘nalish bo‘lganiligi uchun hozirgi kunga qadar ham sohada to‘kis tugal o‘rganilmagan mavzular juda ko‘p. Bunga misol sifatida modallikni ifodalash masalalarini olishimiz mumkin bo‘ladi. Chunki modallikni o‘rganishdagi, ayniqsa uni qiyosiy tahlil qilishdagi muammolar talaygina. O‘zbek va ingliz tillarida modal so‘zlarni o‘zlashtirish jarayonida duch kelish mumkin bo‘lgan masalalar ularning tarjimasi bilan bog’liq holda yuzaga keladi. Biz asosan hozirgi o‘zbek tilidagi modal so‘zlar haqida fikrlarga egamiz, bu so‘zlar deyarli barcha so‘z turkumlari doirasida uchrashi mumkin. Biroq ingliz tilida bizga ma’lum bo‘lgani modal fe’llardir. Modal fe’llar fe’l turkumi doirasiga kiruvchi so‘zlar hisoblanadi va ularga xos xususiyatlarning deyarli barchasiga egadir. Tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri modal so‘zlarning muqobillarining ma’no farqlash va farqlamaslik jihatlarini modal fe’llarning o‘ziga nisbatan taqqoslashdir. Shuningdek, o‘zbek va ingliz tillaridagi modal so‘zlarning qo‘llanilish asoslarini qiyosiy aspektda tahlil qilishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Modallik jahon, shuningdek, ingliz va o‘zbek tilshunosligida tadqiqotchilar e’tiborini tortib keladigan mavzulardan biridir. Jumladan, M.R.Qosimova tomonidan “Ingliz tili grammatikasi” kitobida modallik haqidagi umumiy qarashlarni berilgan, grammatik qoidalar va misollar orqali dastlabki o‘rganuvchilar uchun yetarlicha tushunchalar taqdim etilgan. O‘.Usmonov va S.Ashurov muallifligidagi “Ingliz tili nazariy grammatikasi” ilmiy risolasida modallikning muqobillariga alohida to‘xtalib o‘tilgan hamda ularning har biri modal so‘zlarga nisbatan qiyosiy o‘rganilgan. Modallikni o‘rganish jarayonidagi yutuq va kamchiliklar ham turli xil izlanuvchilar maqolalaridan o‘rganildi. Masalan, D.Sirojidinova hamda Sh.Murodovalarning hammualliflikdagi “Ingliz tilida modal fe’llarining o‘ziga xos xususiyati” nomli maqolasida modal fe’llarning boshqa fe’llar, ya’ni mustaqil fe’llar va yordamchi fe’llardan qaysi jihatlari bilan farqlanishi haqidagi fikrlar joy olgan. D.Ganiyevaning bir necha maqolalarida dunyo tillari, xususan, o‘zbek va ingliz tillaridagi fe’llarning sinkretik hamda polifunksional xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida modal fe’llar masalasi, ularning qo‘llanishiga doir nazariy qarashlar badiiy adabiyotlardagi misollar yordamida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolani yozish jarayonida A.Tadjibayeva, M.Toshpulatova, D.Sirojidinova, D.Raximjonova kabilarning bir qator til o‘qitish masalalariga bag‘ishlangan maqolalaridagi modal fe’llarni o‘rgatishga doir tavsiyalardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ingliz tilidagi modal fe’llar ko‘pincha modallikni ifodalashda ishlatilgan yordamchi fe’llarning kichik bir guruhi hisoblanadi. Ular boshqa fe’llardan o‘zlarining benuqsonligi bilan ajralib turadi va modal fe’llar oxirida III-shaxs birlikda -(e)s qo‘shimchasini olmaydi. Asosiy ingliz modal *fe’llari can, could, may, might, will, would, shall va should*lardir. Ma’lumki, ba’zan quyidagi boshqa fe’llar modallar kabi turkumlanadi. Ular quyidagilar: *ought to, had better, used to, have to, dare* va *need*. Ushbu fe’llar asosiy modal fe’llarining barcha xususiyatini aks ettirmaydi va ba’zan “semi modals” deb ataladi. Lekin ba’zi bir holatlarda asosiy modal fe’llarning muqobil vazifadoshi bo‘lib kela oladi. Quyida mazhur yarim-modal fe’llar”ning qo‘llanilish qoidalari tahlil qilamiz.

Ought to + V hozirgi va kelasi zamonda ishlatilib, axloqiy burch yoki maslahatni ifodalaydi. *He ought to help his friend.* Ought to + have + P.P. shakli esa o‘tgan zamonga taalluqli bo‘lib, biror kishi burchini bajarmaganda yoki nomunosib xatti-harakat qilganda unga nisbatan tanbeh va ta’na ma’nosida qo‘llanadi. Xuddi modal fe’llardek ularning muqobillari yordamida gaplarning so‘roq shakllarini yasashimiz ham mumkin. *Ought* modal fe’lining so‘roq shakli ought modal fe’lini egadan oldinga chiqarish orqali yasaladi. *Ought to* modal fe’l gapning bo‘lishsiz shakli esa doimgidek *not* inkor yuklamasi yordamida yasaladi. Bizga ma’lumki, modal fe’llardan so‘ng asosiy fe’lning birinchi shakli talab etiladi. Lekin semi-modallardan so‘ng *to* talab etiladigan holatlar ham mavjud. *Ought to* modal fe’li har doim o‘zidan keyin *to* ni talab qiladi.

You ought to have done it yesterday.
Ought I to go?
I ought not to go.

Need modal fe’li hozirgi ingliz tilida ham modal fe’li vazifasida, ham modal bo‘lmagan to‘g‘ri fe’l vazifasida ishlatilishi mumkin. Ushbu modal fe’l “kerak, zarur” kabi ma’nolarni anglatadi. U asosan so‘roq va inkor gaplarda ishlatiladi. Need + V biror ish – harakatning bajarilishi zarurligini bildiradi va “kerak” deb tarjima qilinadi. Bu modal fe’l faqat oddiy hozirgi zamonning so‘roq va bo‘lishsiz shakllarida ishlatiladi. Shu o‘rinda shuni eslatib o‘tishimiz kerakki, *need* bilan boshlangan so‘roq gaplarning bo‘lishli javobida *must* bilan javob beriladi.

Need he come here?
You needn’t come so early.
Need I go there at once?

Yes, You must.

Aksincha, *must* bilan boshlangan so‘roq gaplarning bo‘lishsiz javobida *needn’t* bilan javab beriladi.

– Must I go there at once?

– No, you needn’t.

Need not + have + P.P. o‘tgan zamonda sodir bo‘lgan, lekin shu ish-harakatni bajarish zarurati bo‘lmaganda ishlatiladi.

You needn’t have come so early.

Need fe’li asosiy fe’l bo‘lib kelishi ham mumkin va u “kerak” deb tarjima qilinib, boshqa asosiy fe’llar kabi hozirgi, o‘tgan va kelasi zamonlarda tuslanadi:

You need a long rest.

We needed the dictionary badly.

I’ll need your advice.

Need fe’li asosiy fe’l bo‘lib kelib, jonli (odamlarni bildiruvchi) egadan keyin tursa, undan so‘ng *to* li infinitiv ishlatiladi.

Jonli ega + need + to + V

My friend needs to learn English.

Need asosiy fe’l sifatida jonli egadan keyin kelsa, u holda undan keyin yoki gerundiy, yoki majhul nisbatdagi infinitiv ishlatiladi.

Jonsiz ega + need + Ving

Need modal fe’li ot vazifasida ham kelishi mumkin.

But one has no need of a reason for that.

There was no need for words.

Dare fe’li ham modal fe’llar guruhiga kirib, o‘zbek tilidagi “jur’at qilmoq, botinmoq” kabi fe’llarga to‘g‘ri keladi. **Dare** fe’li ishlatilishiga ko‘ra ikki guruhga ajratiladi. Modal fe’llar kabi hozirgi zamonda barcha shaxslarda o‘zgarmay *dare* bo‘lib, o‘tgan zamonda esa *dared* (yoki *durst*) bo‘lib o‘zgaradi. Bo‘lishsiz shakli esa *daren’t* hisoblanadi. U to‘g‘ri fe’llar kabi tuslanadi. To‘g‘ri fe’llar kabi tuslanganda III-shaxsda **-s** ni oladi va hozirgi hamda o‘tgan zamon so‘roq va bo‘lishsiz shakllarda *do* ko‘makchi fe’li ishlatilishi mumkin. *Dare* fe’li ko‘pincha so‘roq va bo‘lishsiz gaplarda o‘zgarmaydi.

We dare not touch what you propose with a barge pole.

I dare say birikmasi hozirgi ingliz tilida “mening fikrimcha, nazarimda, menimcha, bemalol aytishim mumkin” degan ma’nolarda qo‘llaniladi.

But I dare say I shan’t miss it.

Dare ning o‘tgan zamon shakli *durst* hozirgi eskirgan shakl hisoblanadi.

If I durst, said the captain, I’d stop and pock off another man.

Dare va *need* ikkalasi ham modal fe’llar sifatida, ham oddiy fe’llar sifatida ham ishlatilishi mumkin. **Dare** *to* siz infinitive bilan ishlatilishi ham mumkin.

I dare to answer her, He needs to clean that.

He didn’t dare go.

Ular *to* siz infinitivni boshqarganda, modallardek qo‘llaniladi va bo‘lishsiz hamda so‘roq gaplarda odatda chegaralangan bo‘ladi.

Dare he do it? (Does he dare to do it?)

I daren’t try. (I don’t dare to try.)

How dare you! How dare he! (g‘azabni, kamsitishni ifodalovchi iborali birikma).

I dare say. (biror narsa haqiqat ekanligiga qat’iy ishionch) .

To have to modal fe’l sifatida *must* modal fe’lining ekvivalenti hisoblanadi. *To have to* fe’li infinitiv bilan ishlatilganligi uchun “majbur bo‘lmoq, bajarishga majbur bo‘lib qolmoq” kabi ma’nolarni anglatadi. *To have to* asosan ma’lum bir sharoitga, hodisaga bog‘liqlikni anglatish uchun qo‘llaniladi.

He had to see her tonight.

– Why did old Tante have to live on the other side of the farm?

– I just have to go to Smith’s.

To have to fe’li har uchala zamonda ishlatilishi mumkin.

a) hozirgi zamonda:

But I have to think of you. (A.E.Coppard)

b) o‘tgan zamonda:

She had to bend and strain at it in order to pull it out. (B.J.Friedman)

c) kelasi zamonda:

I think I shall have to go. (A.E.Coppard)

To have to shart maylida ham ishlatilishi mumkin.

One day in early summer seemed miraculously, that Stern would not have to sell his house and muve away. (B.J.Friedman)

To have to o‘rnida *to have got to* ham ishlatilishi mumkun.

You have got to have friends he sercamed at her. (B.J.Friedman)

To have to fe’lining o‘tgan va hozirgi zamonlardagi so‘roq va bo‘lishsiz shakllari *do* ko‘makchi fe’li yordamida yasaladi. Kelasi zamon so‘roq va bo‘lishsiz shakllari esa *not* inkor yuklamasi ishtirokida yasaladi.

Does he have to go right now?

He does not have to go right now.

She will not have to come so early tomorrow.

To have fe’li. Hozirgi ingliz tilida **to have** fe’li keng tarqalgan va keng funksiyali fe’llardan hisoblanib, mustaqil, ko‘makchi va modal fe’l vazifalarida kela oladi. *To have* fe’li ma’lum paradigmatik formalar oppozitsiyasini tahlil qiladi.

To have fe’lining vazifalari:

a) *to have* mustaqil fe’l vazifasida .

b) *to have* fe’lining frazeologik birikmalarda ishlatilishi.

c) *to have* fe’lining modal ma’noda ishlatilishi.

d) *to have* fe’li ko‘makchi fe’l vazifasida ham kelishi mumkin.

To have got birikmasi. *To have got* birikmasi so‘zlashuv tilida va ingliz tilining amerika variantiga xos bo‘lib, u mustaqil fe’l vazifasida kelishi ham modallikni ifodalashi mumkin.

a) *to have got* birikmasi mustaqil fe’l vazifasida kelishi mumkin.

I have a book. I have got a book.

I think I’ve got a sixpence for you (A.E.Coppard).

We have got no time for you to collect rare plants after your last attempt as a driver among the wonders of the deep (I.K.Chesterson)

b) *to have got* modallikni bildiradi. *To have got* fe’li modallikni ifodalashi uchun infinitive shaklidagi biror fe’l bilan kelishi shart. Masalan:

Come on, muddy or no, we’ve got to present ourselves before the baronet. (I.K.Chesterson) .

I have got modallikni ifodalaganda, birinchidan, *to have* fe’lining modal fe’l vazifasida kelgandagi funksiyasidan farq qilmasligi hamda *to be* fe’li kabi majburiylikni, avvaldan rejalashtirilganlikni bildirishi mumkin. Masalan:

I have to meet him at 7 o‘clock.

I have got to meet him at 7 o‘clock.

I am to meet him at 7 o‘clock.

Had better birikmasi qachonki tavsiya qilmoq yoki muvofiq munosabatni ifodalaganda **should** va **ought to** ga o‘xshash ma’noni beradi .

I had better get down to work.

Bu modal fe’l, shuningdek, tahdid ma’nosini ifodalashda ham ishlatilishi mumkin.

You had better give me the money or else.

Bu birikmadagi *had* modal fe’lga juda o‘xshash. Bu esa infinitivsiz boshqariladi. Bunda mazkur fe’lni *have* fe’lining boshqa hech qanday shakli tomonidan almashtirib bo‘lmaydi va u yordamchi fe’l kabi sintaktik minosabatda bo‘ladi. *Had better* birikmasi shu sababli qo‘shma fe’l turidek e’tiborga loyiqdir. U ba’zan modal fe’llar bilan yoki yarim modallar kabi turkumlanadi. *Had better* tarkibidagi *had ’d* ga qisqarishi mumkin, yoki asosan Amerika ingliz tili variantida ba’zi norasmiy holatlarda ishlatilganda tushirib qoldiriladi. Birikma Perfect Infinitive bilan ishlatilishi mumkin:

You’d better have finished that report by tomorrow.

Uning bo‘lishsiz shakli *hadn’t better* hisoblanadi va u asosan so‘roq gap tarkibida ishlatiladi.

Hadn’t we better start now?

Agar *better* dan so‘ng *not* ishlatilsa, infinitivning ma’nosi o‘zgaradi.

You’d better not do that.

Ya’ni bunday holatda gapning ma’nosi kuchli maslahatni, “bunday qilmasligingiz kerak” ma’nosini beradi. Odatda ko‘pincha tavsiya, maslahat ma’nolarini hosil qilish uchun ishlatiladi. Bu ogohlantirish, ilojsiz umidsizlikni ifodalaydi. Masalan:

- You had better take your umbrella with you today.

- That bus had better get here soon!

- You had better watch the way you talk to me in the future.

Yuqorida berilgan birinchi gapimizda tavsiya ma’nosini, ikkinchi gapimizda ilojsiz umid ma’nosini va oxirgi gapimizda esa ogohlantirish ma’nosini ifodalayapdi.

Used to fe’lli birikma o‘tgan holatlar yoki o‘tgan odatiy harakatlarni, odatda ular uncha uzoq bo‘lmagan tub ma’noni ifodalaydi. U infinitiv bilan birga keladi (fe’lning to‘liq birikmasi: used + to + infinitive) .

I used to go to the college.

Buning ma’nosi so‘zlovchi oldin odatiy kollejga borganligi, sababsiz ortiq davom etmaganligini anglatadi.

Used he to come here?

Demak, so‘roq gaplarda *used* gap boshiga chiqadi. Bo‘lishsiz shakli esa *not* inkor yuklamasi orqali yasaladi. *Not* inkor yuklamasi *used* dan so‘ng ishlatiladi.

He used not to come here.

Ba’zan *used* o‘rnida odatiy fe’lning o‘tgan zamon shakli did dan foydalanadi.

Did he used to come here?

He didn’t use to come here.

Used to ning fe’l shakli *use* o‘xshash birikma, ma’noni sifat shakli bilan almashtirib bo‘lmaydi.

I am used to this, we must get used to the cold.

Sifat shakli fe’l orqali ifodalangan paytda gerundiy ishlatiladi:

I am used to going to college in the morning.

Modal fe’llar ish-harakatning bajarilish imkoniyati, qobiliyati, ehtimolligi, zaruriyatini ifodalaydi. Ko‘plab modallar birdan ortiq ma’noda qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek yuqorida berilgan “semi-modals” orqali ham so‘zlovchi ish-harakatga bo‘lgan munosabatni ifodalash imkoniga ega. Bunda berilgan ma’lumotlar yordam beradi, deb o‘ylaymiz.

XULOSA

Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan mavzular, ya’ni modallikni o‘rganishdagi hozirgi kunga qadar davom etayotgan izlanishlardan va muammoli vaziyatlarning muhokamalaridan kelib chiqqan holda aytadigan bo‘lsak, bu mavzu yechimi topilmagan masalalar, yo‘nalishlar va qiyosiy tahlilga muhtojligi ko‘zga tashlandi. Modallik munosabatni ifodalash uchun qo‘llanilsa, ularning muqobillari ham xuddi shunday vazifani ifodalashi isbotlangan. Maqolani yozish jarayonida yarim-modallarning bir nechtasiga to‘xtalib o‘tildi, lekin hali o‘rganilmagan modallarning muqobillari ham bor. O‘rganilgan modal vazifasini bajara oluvchi so‘zlar haqidagi grammatik qoidalar va ularning misollar yordamida tushuntirib berilishi o‘quvchiga mavzuni tushunishga yordam beradi. Bu esa mazkur yo‘nalishda monografik plandagi izlanishlar uchun yo‘l ochib beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Buranov J.B, “ Ingliz tili grammatikasi “ T.: ,,O‘qituvchi”-1973.
2. Hoshimov U, Buranov J, “Ingliz tili grammatikasining normativ kursi”. T.:,,O‘qituvchi”- 1987.
3. Usmonov O‘.U., Ashurov Sh.S. “Ingliz tili nazariy grammatikasi”. Sam.:-2007.
4. G‘apparov M, Qosimova R, “Ingliz tili grammatikasi”. T.:-2008.
5. Sirojidinova, D. B. (2022). BRIEF INFORMATION ABOUT THE HISTORY OF LINGUOCULTURALOLOGY. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, *1*(4), 131-134.
6. Sirojidinova, D. B. Q., & Murodova, S. A. Q. (2022). Ingliz tilida modal fe’llarining o‘ziga xos xususiyati. *Science and Education*, *3*(1), 419-423.
7. Sirojidinova, D. (2022). MULOQOT–SHAXSLARARO AXBOROT ALMASHINUV JARAYONI. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(5), 335-337.
8. Dilshoda, R. (2022). THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF COMPUTER TERMS IN ENGLISH LINGUISTICS. *PEDAGOGS jurnali*, *20*(2), 36-40.
9. Raximjonova, D. (2022). INGLIZ VA O ‘ZBEK TILLARIDA KOMPOZITSIYA USULIDA SO ‘Z YASALISHI HODISASINING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(4), 710-713.
10. Toshpulatova, M. I. (2022). THE MAIN FEATURES IN TEACHING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(5), 207-214.
11. Ганиева Д.А. МОДАЛ ВА КЎМАКЧИ ФЕЪЛЛАРНИНГ СИНКРЕТИК ҲАМДА ПОЛИФУНКЦИОНАЛ ХУСУСИЯТЛАРИ. «Сўз санъати» халқаро журнали. – Тошкент, 2022. – №5/6. – Б.19-23.
12. Таджибаева, А. (2022). ИНГЛИЗ ТИЛИНИ САМАРАЛИ ЎҚИТИШДА ГРАММАТИК ТАРЖИМА МЕТОДИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Research Focus*, *1*(2), 353-359.